

2025-yil, iyun 12-son



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

27 IYUN

MATBUOT VA OAV XODIMLARI KUNI

Tabriklaymiz!



Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov,
Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov,
Abdurahim Nosirov, To'lg'in Saydaliyev,
Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva,
Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev,
Salima Jumayeva, Qayum Baymirov,
Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov,
Husniddin Norqulov, Odiljon Boynazarov,
Madina Nuriddinova, Barno Kadirova,
Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova,
Yuldots Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov,
Feruza Manukyan, Gulchexra Keldiyorova,
Gulsanam Xolikulova, Komiljon Qarshiyev,
Svetlana Umirova, Xolmo'min Fayzullayev,
Nilufar Namazova, Dilbar Niyazova,
Sayyora Halimova, Shaxnoza Yunusova,
Nigoraxon Ro'zibayeva, Tadjixon Sabitova,
Oqila To'raqulova.

Bosh muharrir:
Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:
Bibimariyam Rahmonova,
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:
Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:
100038, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefonlar:
(93) 759-43-66, (77) 003-34-33,
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:
TIL VA ADABIYOT TA'LIMI
ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi
338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika
hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik
dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>



MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Zarnigor SOHIBOVA. SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA TOPOGRAFIK SHE'RLARNING O'RNI VA BADIY-ESTETIK VAZIFALARI 3 Gulbaxar TAVALDIYEVA. TIL TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TALABALAR OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI6
Sabohat BEGNAYEVA. SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI TA'LIM TIZIMIDAGI STRATEGIK AHAMIYATI9
Oqiljon MAVLONOV. NAVOIY MA'NAViy OLAMIGA YO'L12
Shaxnoza XAKIMOVA. X.X.BERDIYEV. BOSHLANG'ICH SINFDa ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSliklARI TAHLILI15

TILSHUNOSLIK

Qahramon ESHBOYEV. O'ZBEK O'QUV LUG'ATLARI VA ULARDA LEKSIKOGRAFIK IZOHLASH MUAMMOLARI18
Gulrux JO'RABOYEVA. Asadullo TURSUNOV. AFFIKSAL PLEONAZMNING YUZAGA KELISH SABABLARIGA DOIR21 Gulasal A'ZAMOVA. EMOTSIONAL DISKURS TUSHUNCHASI VA UNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI24 Shirin SHARASULOVA. O'ZBEK TILIDA SO'Z O'YINLARI VA METAFORALARNING SEMANTIK-SINTAKTIK TADQIQI MASALALARI.....27
Diloromxon SHOKIROVA. GENDER LINGVISTIKA NUQTAYI NAZARIDAN BOLA NUTQIDAGI DIALOGIK VA MONOLOGIK NUTQ SHAKLLARI30
Nilufar ADIZOVA. SAYYOHLIK MATNLARIDA INTERTEKSTUALLIK VA ULARDA TARIXIY BIRLIKlARNING QO'LLANISHI33
M.M.SHOKIROVA. XORIJIIY TIL O'RGANUVCHI TALABALARDA37 O'QIB TUSHUNISH MUAMMOLARINI KOGNITIV YUKLAMA NAZARIYASI ASOSIDA TAHLIL QILISH37

Nilufar ADIZOVA,
Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi
va jumalistika kafedrasida dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
nilufaradizova8@gmail.com

SAYYOHLIK MATNLARIDA INTERTEKSTUALLIK VA ULARDA TARIXIY BIRLIKLARNING QO'LLANISHI

Annotatsiya: har qanday nutq muloqot qilish, bir-birimizni anglash uchun muhim vazifa bajarar ekan, muayyan shakldagi matn asosida yuzaga chiqadi. Asosiy matn ichida qo'llanadigan intermatn (qo'shimcha matn)lar ham so'zlovchi yoki roviyning ta'sirchan va mazmunli nutq ifodalash maqsadi bilan mazmunni boyitishga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, ushbu maqolada sayohat qilishni xohlagan har bir kishini qiziqtirgan turistik matnlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan madaniy va milliy jihatdan o'ziga xos konseptlarni nomlovchi, tasvirolovchi, tarixiy asarlarda muhim o'rin tutuvchi birliklarning intermatn asosida qo'llanishi, o'ziga xos leksik-semantik xususiyatlariga doir fikrlar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: *intermatn, intertekstuallik, periferik matn, yadro matn, pretekst, iqtibos, epigraf, madaniy obyektlar, turizm, sayohat.*

Annotation: any form of speech serves the important function of communication and mutual understanding, and it is always formed based on a specific textual structure. The intertexts (supplementary texts) used within the main text also serve to enrich the content, aiming to help the speaker or narrator express their speech in a more effective and meaningful way. Accordingly, this article explores the use of intertexts in connection with concepts that are culturally and nationally unique, directly related to touristic texts that attract the interest of potential travelers. It focuses on the application of such culturally significant units often found in historical works within intertextual structures, as well as their distinctive lexical and semantic features.

Key words: *intertext, intertextuality, peripheral text, core text, pretext, quotation, epigraph, cultural objects, tourism, travel.*

Аннотация: любая форма речи выполняет важную функцию общения и взаимопонимания и всегда формируется на основе определённой текстовой структуры. Интертексты (дополнительные тексты), используемые в основном тексте, также способствуют обогащению содержания, помогая говорящему или рассказчику выразить свою речь более эффективно и содержательно. Соответственно, в данной статье рассматривается использование интертекстов в контексте культурно и национально уникальных концептов, непосредственно связанных с туристическими текстами, представляющими интерес для потенциальных путешественников. Основное внимание уделяется применению таких культурно значимых единиц часто встречающихся в исторических произведениях в интертекстуальных структурах, а также их характерным лексико-семантическим особенностям.

Ключевые слова: интертекст, интертекстуальность, периферийный текст, ядерный текст, претекст, цитата, эпиграф, культурные объекты, туризм, путешествие.

Kirish (Introduction). T.Y.Litvinenko fikricha, "Matn – bu yaratuvchining dunyo haqidagi bilimlaridan iborat belgilangan fragment"[8]. Chunki inson borliqni segment birliklar orqali matn asosida tasavvur qiladi va anglaydi. Bugungi kunda matnlar orasidagi munosabatda ikki muhim jihat ustun: birinchisi matn-matn munosabati, ikkinchisi intertekstual

munosabatlar. Intertekstual munosabatlar universal xususiyatga ega bo'lib, barcha matnlarga xosdir (maqol, matal, askiya, rivoyat, hikoya, badiiy, publitsistik, rasmiy, ilmiy va boshqalar). Intertekstuallik lotincha "intertextum" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu "ichkariga o'ralgan" degan ma'noni anglatadi [9]. Kubryakova E. S. ilmiy tahlillariga ko'ra, "matn"

atamasi ko'p ma'noli kategoriya bo'lib, uning asosiy ma'nosi yadro matnlari bilan bog'liq, ikkilamchi ma'nolari esa periferik matnlarga taalluqli. Ya'ni to'liq belgilarga ega eng tipik matnlar – yadro a'zolari (asosiy matn); qisman xossalarga ega yoki boshqa belgi shakllarida ifodalangan birliklar – periferik a'zolar (ikkilamchi matnlar – intermatnlar) hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Intertekstual matnlarning konseptual asoslari XX asrning 20-yillarida Baxtin M.M. tomonidan aniqlangan bo'lib, keyinchalik boshqa olimlar tomonidan rivojlantirilgan. Masalan, M. M. Baxtin, Y. Kristeva, R. Bart, N. Pyege-Gro, Y.N. Tinyanov, V.V. Vinogradov, A.N. Veselovskiy, V.M. Jirmunskiy kabi olimlarning ishlarida intertekstualik fenomenining shakllanishi va rivojlanishi aks etgan bo'lsa, A. E. Bochkarev, N. A. Kuzmina, L. A. Mashkova, N. A. Fateyeva, A. S. Yevseyev, G. V. Denisova, E. M. Anikina, L. A. Shaxova, M. D. Tuxareli, N. A. Bayeva, E. V. Rozen, S. Xoltius va boshqalarning tadqiqotlari intertekstuallik va unga yaqin tushunchalarga bag'ishlangan [10].

XX asrning ikkinchi yarmida fransuz tadqiqotchisi Yuliya Kristeva avvalgi filologik izlanishlar, ayniqsa, M. M. Baxtinning ilmiy merosi asosida intertekstuallik nazariyasini ishlab chiqdi. Unga ko'ra: *"Har bir matn — bu iqtiboslar mozaikasi, u doimo boshqa bir matndan kiritish va o'zgartirish orqali yaratilgan"*, degan fikrni ilgari surdi [8]. R.Bart intertekstual matnni "eski iqtiboslardan to'qilgan yangi to'qima", deb ta'riflaydi [8].

Intertekstuallik nazariyasi Baxtin nomi bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, fransuz tadqiqotchisi N. Pyege-Gro fikriga ko'ra, intermatn tushunchasi insoniyat yozuvi va madaniyatiga qadim zamonlardan xos bo'lib kelgan [9]. Zolotuxin tadqiqotida intertekstuallikning ifoda shakllari til kategoriyasi sifatida ommaviy axborot vositalari (OAV) diskurslari, zamonaviy ommaviy adabiyot (ZOA) va tabiiy nutq (TN) asosida kompleks tahlilga tortilgan bo'lib, uning ta'rifiga ko'ra, "intertekstuallik – bu belgilangan til shaklida (matn, gap, ibora, so'z, morfema, harf) ikki yoki undan ortiq turli matnlarni (har xil diskurslarni aks ettiruvchi) birlashtirish [10]

Shu o'rinda shunday savol tug'iladi: har qanday "matn" deb atalgan sintaktik butunlik "intertekst" bo'la oladimi? Yo'q, *intertekstual matnlar* – bu matnlaro aloqalarni ifodalovchi birliklar bo'lib, ularning markazida sitatlar turadi. Ya'ni, "Har bir matn – bu intertekstdir, unda uni o'rab turgan madaniyat va tarixdan olingan turli darajadagi iqtiboslar mavjud. (R.Baxtin) [8]"

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Kuzatishlar asosida shuni aytilish mumkin, bizningcha ham, "intertekstuallik" asosiy (yadro) matn ichida lingvistik, ekstralingvistik, estetik, emotsional yoki boshqa maqsadlar asosida biror-bir qo'shimcha (periferik) matnni qo'llashdir. Ular matn (nutq) mazmunini boyitish, ta'sirchanlikni oshirish, emotsionallikni ifodalash, qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish, izohlash, voqelikni xotirlash, yodga solish, diqqatni jalb qilish kabi maqsadlarda qo'llanishi mumkin.

Intermatnlarni qo'llashda quyidagi jihatlarga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki ushbu xususiyatlar asosiy matn mazmuni bilan qo'shimcha matnning mosligi va haqqoniyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi:

- ▶ asl matnning struktur-semantik, stilistik jihatdan to'g'riligi;
- ▶ qo'shimcha kiritilayotgan matnning aynan, o'zgarishsiz qo'llanishi;
- ▶ asosiy matn bilan qo'shimcha matn mazmunining o'zaro bog'liqligi;
- ▶ uning mustaqil matn sifatida asosiy matndan ajralib turishi;
- ▶ muallif yoki manba haqida ma'lumot bo'lishi;
- ▶ pretekst (oldingi – asosiy matn) ga ishora qilish xususiyatlariga egaligi...

Intermatnlarning qo'llanishi sayohatchilarni jalb qilish maqsadida shakllantirilgan turizmga oid matnlar uchun ham g'oyat ahamiyatli.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). L.M.Goncharova fikricha, "turizm" tushunchasi muayyan til sohiblari ongida mavjud bo'lgan "sayohat" lingvomadaniy konsepti bilan uzviy bog'liq holda predmetlarga emas, balki muayyan voqealarga oid murakkab mental xususiyatli konseptdir [3]. Shuning uchun ham muayyan voqelik haqida gapirganda, avvalo, boshqa birov (tarixiy shaxs)ning o'sha voqea bilan bog'liq

xotiralari, fikrlari esga olinadi. Masalan, Herman Vamberining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" asari [2]da muallif tomonidan Movarounnahr – Buxoro va Samarqand haqida bir sayyoh sifatida ko'rgan-bilganlari hamda to'plagan qo'lyozma materiallari asosida taqdim etgan qimmatli ma'lumotlari sayohatchilar diqqatini jalb qilish uchun muhim manbadir. Ularda qo'llangan intermatnlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Xotiralar, yozishmalar asosida qo'llangan intermatnlar;

2. Iqtibos shaklida qo'llangan intermatn;

3. Tarixiy hikoyalar asosidagi intermatnlar;

4. She'riy matn asosida qo'shilgan matnlar;

5. Tarjimayi hol asosida qo'shilgan intermatnlar;

6. Aforizmlar sifatida kiritilgan intermatnlar.

Quyida temuriylar davri bilan bog'liq tarixiy manbalarda intermatn sifatida qo'llangan ayrim matnlar hamda ularda dominant sifatida milliy-madaniy ruhni ifoda etuvchi tarixiy, leksik birliklar tahliliga diqqat qaratamiz:

Xotiralar, yozishmalar asosida qo'llangan intermatnlar: Yevropadan tashrif buyurgan sayyoh xotiralari asosida asarda qo'llangan *ipak, duxoba va atlas kiyimlar, bo'rk* (bosh kiyim, qalpoq), *shokila* (bezak sifatida osib qo'yiladigan taqinchoqlar), *qabo* (oltin uqa bilan bezatilgan uzun qizil kiyim), *noyob toshlar bilan bezatilgan qurollar va kamarlar, xontaxta* (ovqatlanish uchun xizmat qiladigan, oyoqlari kalta, yog'och stol), *oltin tovoq, kosa, qadah, kigiz* kabi ko'plab narsa-buyumlarning nomlari, *to'y* (uylanish, turmushga chiqish, xatna qilish va b. munosabatlar bilan ziyofat berib, bazm-tomoshalar bilan o'tkaziladigan xalq marosimlarining umumiy nomi), *mehmondorchilik, me'morchilik, o'zaro hurmat, odob-axloq* (Podshoh birinchi luqmani tanovul qilgach...), hayot tarzi (*ularning boyliklari, nomdorliklari, bezaklari bu ko'chma yurtlarda ko'zga yaqqol ko'rinadi...*) kabi jihatlari, *palov(osh), lochira, favo* (mevali tort), *qovurma* va boshqa taom nomlarini ifodalovchi birliklar keltirilgan bo'lib, ular orqali muayyan davr ko'z o'ngimizda gavdalanadi hamda milliy-madaniy mentalitetimizning o'ziga xos tomonlari namoyon bo'ladi [5].

Temur o'z saltanat taxtini qanchalik inqiroz va xarobalikka uchragan xonadonlar hamda mamlakatlar zaminiga qurgan bo'lsa, ularning barchasidagi urf-odatlar va marosimlarni o'z saroyida to'pladi va taraqqiy ettirdi. Saroy a'yonlarining ipak, duxoba va atlas kiyimlari arab yoki musulmon rasm-rusumida tikilgan edi...

Saroydagi ayollarning libosi, xususan, bo'rk (bosh kiyim, qalpoq), *shokila* (bezak sifatida osib qo'yiladigan taqinchoqlar) *qadimgi Eron va Xorazm urfiga xos edi. Saroy xonimlari qabo* (oltin uqa bilan bezatilgan uzun qizil kiyim) *kiyar edilar. U kiyimning yoqasi bo'ynini qisib turadigan, o'zi yengsiz bo'lgan, orqa etagi juda uzunligi uchun uni maxsus joriyalar ko'tarib yurishgan...* (H.Vamberi, 49)[5]

Tarixiy hikoyalar asosidagi intermatnlar: muallif 1220-yilda mo'g'ullar istilosi Buxoroga cheksiz musibatlar, qirg'in-barotlar keltirganini yozar ekan, tarixchi ibn Attor tomonidan asosiy matnga kiritilgan hikoya asosida voqealar dahshatini yanada bo'rttirib ko'rsatishga harakat qiladi: *"U haqiqatan dahshatli kun bo'ldi. Bori manguga ketgan erlarning, xotinlarning, bolalarning tovushlarigina eshitilib turdi. Vahshiylar xotinlarni ham, qizlarni ham o'zlarining birodarlari ko'z o'ngida tahqirladilar. Ular bu tahqirga qarshi ko'z yoshidan boshqa qurol olmadilar. Ko'plari bu dahshatli manzaradan o'limni afzal ko'rdilar..."* (H.Vamberi, 24).

She'riy matn asosida qo'shilgan matnlar: Buxorodagi xunrezliklarga guvoh bo'lgan qochoqlardan biri *Xurosonga* kelib, o'z vatanining ahvoli haqida keng shuhrat qozongan quyidagi baytni aytgan edi: *"Omadand va kundand va so'xtand va kushtand va burdand va raftand"* (keldilar va yemirdilar, yondirdilar va o'ldirdilar, taladilar va ketdilar.) (H.Vamberi, 24).

Aforizmlar sifatida kiritilgan intermatnlar: *"Temur tuzuklari"* Temur hokimiyatining ma'muriy boshqaruvi uchun muhim qo'llanma vazifasini o'tagan. Ma'muriyat boshida devonbegi (bosh ministr), uning yonida arkbegi (marosimlarni o'tkazuvchi) hamda to'rt vazir bo'lgan. Ulug' amaldorlar o'z vazifalarini bajargan paytda, soliqlar yig'ish vaqtida yumshoq muomala qilishlari shart bo'lgan. Qamchi ishlatish man

qilingan. Bu to'g'rida Temurning o'zi aytadi: "Har bir voli (ar. – hokim, hokimiyat vakili, O'TIL,467) o'zining qamchisi kabi ahamiyatga ega bo'lmasa, u kishi to'ralik mansabiga loyiq emas."

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Xulosa qilib aytish mumkinki, har qanday millatning o'ziga xos madaniy merosi, qadriyat va an'analari, urf-odatlar, xulq-atvor normalari hamda milliy xususiyatlari uning tili orqali aks etadi. Shunga ko'ra, u nafaqat biror-bir xalqning milliy-madaniy

qiyofasini aks ettiruvchi, ifodalovchi, balki ularni asrash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi, kelajak avlod va boshqalarga yetkazuvchi muhim vosita hamdir. Biz biror voqelik, narsa-hodisa yoki shaxs haqida fikrimizni ifodalamoqchi bo'lsak, til birliklari orasidan eng ta'sirchan va tinglovchiga oson anglashiladigan birliklarga murojaat qilamiz. Asosiy matn ichida qo'llanadigan intermatn (qo'shimcha matn)lar ham so'zlovchi yoki roviyning ta'sirchan va mazmunli nutq ifodalash maqsadi bilan mazmunni boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – М.: Прогресс, 1978. С. 512.
2. Герман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.
3. Goncharova Л.М. Концепт "путешествие" и его межкультурная представленность в рекламной коммуникации сферы туризма. НИР. Современная коммуникативистика (№ 1, 2012). – Москва.
4. Istamovna, A. N. (2023). Methodological possibility of intertextuality in artistic text. *Innovation in the modern education system*, 3(31), 182-191.
5. Adizova N. I. Turizmga oid matnlarda milliy-madaniy birliklar ifodasi (tarixiy manbalar asosida) *BuxDU ilmiy axboroti* 2024, 5, 178-182.
6. Istamovna, A. N. (2024). Sayohat turizmiga oid matnlarda milliy-madaniy birliklarning leksik-pragmatik xususiyatlari. *"Contemporary technologies of computational linguistics"*, 2(22.04), 479-484.
7. Istamovna, A. N. (2021). Erkin Vohidov dostonlarida pretsedent birliklarning o'rni: Adizova Nilufar Istamovna Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi. *Научно-практическая конференция*.
8. Литвиненко Татьяна Евгеньевна. Интертекст и его лингвистические основы (на материале латиноамериканских художественных текстов). Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Иркутск, 2008. С. 7
9. Пьер-Гро Н. Введение в теорию интертекстуальности. Пер. с фр. [Текст] / Н. Пьер-Гро / общ. ред. и вступ. ст. Г.К. Косикова, – М: Издательство ЛКИ, 2008. С. 48.
10. Золотухина Елена Николаевна. Категория интертекстуальности в современном русском языке. Автореферат диссерт. канд. филол. наук. – Киров, 2009. С.4.